

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TARBIYASI VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Narkulova I.R.,

*O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasi, ularda Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Yosh avlod tarbiyasining mamlakat taraqqiyoti, jamiyat barqarorligi va milliy manfaatlarni ta’minlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Globallashuv, raqamli axborot muhitining kengayishi, turli g‘oyaviy va ma’naviy ta’sirlar kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash zarurati asoslanadi. Shuningdek, oila, ta’lim muassasalari, mahalla va jamoat tashkilotlarining yoshlar tarbiyasidagi hamkorligi, tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollikning vatanparvarlikni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, yoshlar, tarbiya, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, fuqarolik mas’uliyati, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, axborot muhiti.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yosh avlodni har tomonlama barkamol, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli va Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan insonlar etib tarbiyalash davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatning kelajagi, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyoti ko‘p jihatdan yoshlarning qanday bilim, dunyoqarash, hayotiy pozitsiya va qadriyatlar tizimiga ega bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liq. «Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda».

O'zbekiston aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil etishi mazkur masalaning ahamiyatini yanada oshiradi. Yoshlar jamiyatning nafaqat demografik va ijtimoiy qatlami, balki uning intellektual, ijodiy va strategik salohiyatidir. Shu sababli Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning sifatli ta'lim olishi, kasb egallashi, o'z qobiliyat va iste'dodini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda.

Biroq yoshlar masalasi faqat ularning ta'lim olishi yoki kasbiy tayyorgarligi bilan cheklanmaydi. Zamonaviy jamiyatga yuqori malakali mutaxassis bilan bir qatorda, o'z Vatani va xalqi oldidagi mas'uliyatini anglaydigan, milliy manfaatlarini qadrlaydigan, fuqarolik pozitsiyasi mustahkam shaxs zarur. Shu ma'noda yoshlar tarbiyasi va ularda vatanparvarlikni shakllantirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ma'naviy-ijtimoiy omiliga aylanmoqda.

Asosiy qism. Vatanparvarlik tushunchasi keng mazmunga ega bo'lib, uni faqat Vatanni sevish tuyg'usi bilan cheklab bo'lmaydi. Haqiqiy vatanparvarlik insonning o'z yurti tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'alarini hurmat qilishi, mamlakat taraqqiyotiga shaxsiy hissa qo'shishga intilishi, jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatini anglashida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy vatanparvarlik faol fuqarolik pozitsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Vatanparvar yosh o'z huquqlarini bilishi bilan birga, o'z burchlarini ham chuqur anglaydi. U jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga befarq bo'lmaydi, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, mamlakatning tinchligi va osoyishtaligini qadrlaydi, uning ravnaqi uchun bilim va salohiyatini safarbar qilishga intiladi.

Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida vatanparvarlikning mazmun-mohiyati yanada kengaymoqda. Zamonaviy yosh dunyodagi o'zgarishlardan xabardor, xorijiy tillarni va axborot texnologiyalarini biladigan, global fikrlaydigan shaxs bo'lishi zarur. Biroq global dunyoga integratsiyalashuv milliy o'zlikni yo'qotish hisobiga amalga oshmasligi kerak. Aksincha, o'z tarixi, madaniyati va qadriyatlarini chuqur anglagan inson boshqa xalqlar va madaniyatlarga ham hurmat bilan munosabatda bo'ladi.

Demak, Yangi O'zbekiston sharoitida vatanparvarlikni shakllantirishning asosiy maqsadi yoshlarni tashqi dunyodan ajratish emas, balki ularda milliy o'zlikni anglash bilan ochiq dunyoqarashni uyg'unlashtirishdan iborat.

Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishda tarixiy xotira muhim o'rin tutadi. O'z xalqining tarixini bilmagan, uning buyuk ajdodlari, milliy davlatchilik an'analari, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglamagan yoshda Vatanga daxldorlik tuyg'usini to'laqonli shakllantirish qiyin. O'zbekiston zamini jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar, mutafakkirlar, davlat arboblari va sarkardalarni yetishtirgan. Ularning ilmiy, ma'naviy va madaniy merosini yoshlarga chuqur o'rgatish nafaqat tarixiy bilim berish, balki ularda milliy g'urur va

mas'uliyat hissini shakllantirish vositasi hamdir. Shu bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasi faqat o'tmish yutuqlari bilan faxrlanishdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Tarixiy xotira yoshlarni bugungi kun uchun mas'uliyatni his qilishga va kelajakni yaratishga undagandagina o'zining haqiqiy tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etadi. Ajdodlar merosi bilan faxrlanish zamonaviy yoshni ilm o'rganishga, izlanishga, mehnat qilishga va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga rag'batlantirishi kerak.

Milliy qadriyatlar ham yoshlar ma'naviy tarbiyasining muhim tayanchidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat, mehr-oqibat, bag'rikenglik, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlar asrlar davomida xalqimizning ma'naviy qiyofasini belgilab kelgan. Bugun ularni zamonaviy hayot talablari bilan uyg'unlashtirgan holda yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifadir.

Bugungi yoshlarning dunyoqarashi shakllanadigan asosiy makonlardan biri raqamli axborot muhitiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va sun'iy intellekt texnologiyalari yoshlarga ulkan ta'limiy va ijodiy imkoniyatlar yaratib bermoqda. Biroq axborot oqimining misli ko'rilmagan darajada ko'payishi muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Yoshlar turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni har doim ham tanqidiy tahlil qila olmasligi mumkin. Yolg'on xabarlar, manipulyativ axborot, zo'ravonlik yoki yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi kontent, ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ko'rinishlari ularning ma'naviy dunyosi va ijtimoiy pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Shu sababli bugun yoshlarni axborotdan shunchaki himoya qilish emas, balki ularda axborot va media savodxonligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh axborot manbasining ishonchliligini tekshirish, fakt va fikrni farqlash, turli manbalarni qiyoslash, axborotning maqsadini anglash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etadi. Agar avval tarbiyaviy ishda asosan tayyor ma'lumotni yetkazish ustuvor bo'lgan bo'lsa, bugun yoshni mustaqil fikrlashga, savol berishga, bahs-munozara qilishga, voqea va hodisalarni dalillar asosida tahlil etishga o'rgatish zarur. Chunki ongli ravishda shakllangan vatanparvarlik har qanday tashqi g'oyaviy ta'sirga nisbatan barqarorroq bo'ladi.

Yoshlar tarbiyasini biror-bir tashkilot yoki ta'lim muassasasining alohida vazifasi sifatida qarash yetarli emas. Shaxsning ma'naviy qiyofasi, eng avvalo, oilada shakllanadi. Bolaning Vatan, xalq, mehnat, burch, halollik va mas'uliyat haqidagi dastlabki tasavvurlari oila muhitida paydo bo'ladi. Ta'lim muassasasi esa ushbu qadriyatlarni tizimli bilim, ijtimoiy tajriba va fuqarolik kompetensiyalari bilan boyitadi. Maktab, akademik litsey, professional va oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi faqat alohida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan cheklanmasligi maqsadga muvofiq. U ta'lim jarayonining mazmuni, pedagogning shaxsiy namunasi,

jamoadagi munosabatlar, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik, ilmiy va ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashishi lozim.

Mahalla va jamoat tashkilotlari esa yoshlarni real ijtimoiy muhitga jalb etishda muhim o'rin tutadi. Yosh inson o'z mahallasi, shahri yoki qishlog'idagi muammolarni hal etishda ishtirok etsa, keksalarga yordam bersa, ekologik aksiyalar, obodonlashtirish ishlari, madaniy-ma'rifiy loyihalarda qatnashsa, unda Vatan tushunchasi mavhum g'oya emas, balki shaxsiy mas'uliyat bilan bog'liq qadriyatga aylanadi. Shu bois "oila – ta'lim muassasasi – mahalla – jamoatchilik" hamkorligini mustahkamlash yoshlar tarbiyasining samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi yoshlarga faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashi, mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatni zimmasiga olish, jamoada ishlash va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish ko'nikmalarini ham shakllantirishi kerak. Bu borada tarix, adabiyot, ona tili, huquq, tarbiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlari katta. Biroq vatanparvarlik tarbiyasini faqat gumanitar fanlar zimmasiga yuklash to'g'ri emas. Aniq va tabiiy fanlarni o'rganayotgan yosh ham o'z bilimlari bilan mamlakatning texnologik va iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishini anglashi zarur.

Ayni paytda, tarbiyada rasmiyatchilikdan qochish muhim. Faqat ma'ruza, shior va bir martalik tadbirlar yoshlarning dunyoqarashiga har doim ham kutilgan ta'sirni ko'rsatmaydi. Yoshlar amaliy faoliyatda ishtirok etishi, mustaqil loyihalar yaratishi, tarixiy joylarga tashrif buyurishi, harbiy xizmatchilar, olimlar, sportchilar, tadbirkorlar, san'at va madaniyat vakillari bilan uchrashishi, jamiyat uchun foydali tashabbuslarda qatnashishi maqsadga muvofiq.

Shunda "Vatanga xizmat qilish" tushunchasi faqat muayyan kasb yoki soha bilan bog'lanib qolmaydi. O'qituvchining sifatli ta'lim berishi, shifokorning inson salomatligini asrashi, olimning yangi kashfiyot qilishi, muhandisning zamonaviy texnologiya yaratishi, harbiy xizmatchining mamlakat xavfsizligini ta'minlashi, tadbirkorning yangi ish o'rinlari ochishi – bularning barchasi Vatan taraqqiyotiga xizmat qilishning turli ko'rinishlaridir.

Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biri – ularda mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirishdir. Daxldorlik insonning "jamiyat men uchun nima qildi?" degan savol bilan cheklanmasdan, "men jamiyat va Vatanim uchun nima qila olaman?" degan savolni ham o'z oldiga qo'ya bilishida namoyon bo'ladi. Buning uchun yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish muhim. Yoshlar o'z fikri eshitilayotganini, tashabbusi qadrlanayotganini, bilimi va mehnati jamiyat uchun zarurligini his qilganda, ularning fuqarolik faolligi ham ortadi. Shu bilan birga, huquq va imkoniyat mas'uliyat bilan uyg'un bo'lishi zarur. Huquqiy madaniyat, qonunga hurmat, ijtimoiy intizom, boshqalarning huquq va

erkinliklarini qadrlash zamonaviy vatanparvarlikning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Vatanni sevish jamiyat qoidalariga rioya qilish, jamoat mulkini asrash, tabiatga ehtiyotkor munosabatda bo'lish va o'z kasbiy vazifasini vijdonan bajarishda ham namoyon bo'ladi.

Dolzarb muammolar va ustuvor vazifalar. Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasi va vatanparvarlikni shakllantirish sohasida bir qator masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, tarbiyaviy ishlarning mazmuni yoshlarning real ehtiyojlari, qiziqishlari va zamonaviy axborot iste'moli xususiyatlariga moslashtirilishi lozim. An'anaviy tarbiya shakllarini interaktiv metodlar, raqamli kontent, ijtimoiy loyihalar va yoshlarning bevosita ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlar bilan boyitish muhim.

Ikkinchidan, yoshlarda tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish talab etiladi. Bu ularning turli mafkuraviy, axborot va psixologik ta'sirlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi.

Uchinchidan, vatanparvarlik tarbiyasida shaxsiy namuna omilini kuchaytirish lozim. Yoshlar uchun ota-ona, ustoz, rahbar va jamoatchilik vakillarining so'zi bilan amali o'rtaqidagi uyg'unlik katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyatga keng jalb etish zarur. Volontyorlik, ekologik harakatlar, xayriya, mahallani obodonlashtirish, madaniy meros obyektlarini asrash, ilmiy-texnik va ijtimoiy loyihalar yoshlarda jamoa va mamlakat oldidagi mas'uliyatni amaliy tarzda shakllantiradi.

Beshinchidan, vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini faqat o'tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, balki yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi, huquqiy va axborot madaniyati, jamoat ishlaridagi ishtiroki kabi sifat ko'rsatkichlari asosida baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining barqarorligi va mamlakatning kelajakdagi mavqeyi ko'p jihatdan bugungi yosh avlodning qanday tarbiya olishiga bog'liq. Shu sababli yoshlar tarbiyasi va ularda vatanparvarlikni shakllantirishni faqat ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bir yo'nalishi sifatida emas, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik vazifasi sifatida qarash lozim. «Oila – shaxsning birinchi tarbiyaviy muhitidir, u yerda milliy qadriyatlar va mehr-muhabbat asoslari singdiriladi. Mahalla esa ijtimoiy birdamlikni mustahkamlab, yoshlarni jamiyatga foydali insonlar sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya muassasalari esa bilim, ma'naviyat va milliy g'ururni tarbiyalashda poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu uch omil o'zaro uyg'unlashib, yoshlarni barkamol, mas'uliyatli va fidoyi vatandoshlar sifatida voyaga yetkazishda samarali tizimni tashkil etadi. Shunday ekan, millatning kelajagi, mustaqil davlatimizning ravnaqi yosh avlodning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga bevosita bog'liqdir. Bu borada oiladan boshlab, mahalla va ta'lim-tarbiya muassasalari hamkorligini yanada

kuchaytirish, yoshlarning ma'naviy va axloqiy barkamolligini ta'minlash – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir».

Zamonaviy vatanparvarlik Vatanga muhabbat, milliy g'urur va tarixiy xotira bilan bir qatorda bilim, mehnat, qonunga hurmat, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik va mamlakat kelajagiga daxldorlikni ham qamrab oladi. Bunday vatanparvarlikni shakllantirish esa oila, ta'lim muassasalari, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlarining uzviy hamkorligini talab etadi.

Eng muhimi, yoshlarni Vatanni sevishga faqat so'z bilan da'vat etish yetarli emas. Ularga o'z bilimi, mehnati, tashabbusi va iste'dodi bilan Vatan taraqqiyotida ishtirok etish imkoniyatini berish zarur. Chunki Vatanga sadoqat insonning kundalik faoliyatida, halol mehnatida, jamiyat oldidagi mas'uliyatida va mamlakat kelajagiga qo'shayotgan shaxsiy hissasida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashning asosiy maqsadi – milliy o'zligini anglaydigan, tarixiy xotiraga ega, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, turli axborot ta'sirlariga ongli munosabat bildiradigan hamda o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan uzviy bog'liq deb biladigan avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son. <https://lex.uz/docs/-6518238>

2.

https://www.researchgate.net/publication/410610658_YANGI_O'ZBEKISTONDA_YOSHLARNI_VATANPARVARLIK_RUHIDA_TARBIYALASHDA_OILA_MAHALLA_VA_TA'LIM-TARBIYA_MASKANLARINING_O'RNI